

Mark Tven asarlaridagi tabiat tasvirlarining tarjimada berilishi

To'raqulova M. D.

*Tarjima nazariyasi va amaliyoti ingliz tili
fakultetining 4-bosqich talabasi Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti*

Annotatsiya: Ushbu tezisda badiiy asar tarjimasida tabiat tasvirining o'rni va badiiy-estetik ahamiyati tahlil qilinadi. Tabiat tasvirlari yozuvchi uslubining muhim elementi sifatida asarning hissiy ohangini belgilaydi, qahramonlarning ruhiy holatini ochib beradi hamda voqealarning badiiy fonini yaratadi. Mark Tvenning "Tom Soyerning sarguzashtlari" asari misolida tabiat tasvirining o'zbek tiliga tarjima jarayonidagi o'ziga xos jihatlar ko'rib chiqildi. Tadqiqot davomida tabiat tasvirini adekvat ifodalashda tarjimonning til sezgisi, madaniy bilimlari va badiiy uslubni saqlab qolish mahorati muhim omil ekani asoslab berildi.

Kalit so'zlar: badiiy tarjima, tabiat tasviri, adekvatlik, badiiy ifoda, Mark Tven, tarjimon mahorati, estetik obraz.

Badiiy tarjima jarayoni nafaqat matnni so'zma-so'z o'girish, balki asarning badiiy-estetik ruhini boshqa tilga ko'chirish san'atidir. Tarjimon muallif uslubini, so'z tanlovini va hissiy ohangni saqlagan holda o'quvchiga yangi tilda xuddi shu ta'sirni yetkazishi kerak. Ayniqsa, tabiat tasvirlari badiiy matnning eng nozik qatlamlaridan biri bo'lib, ularni adekvat tarjima qilish katta mahorat talab etadi. Chunki tabiat obrazlari orqali muallif qahramonlarning ruhiy holatini, voqealar kayfiyatini va madaniy muhitni aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan, Mark Tvenning "Tom Soyerning sarguzashtlari" asaridagi tabiat tasvirlarini o'zbek tiliga tarjima qilish jarayoni tarjimashunoslikda dolzarb masalalardan biridir. Asarda Missisipi daryosi, o'rmon, g'or kabi tabiiy obrazlar nafaqat voqealar fonini, balki bolalik erkinligi va ozodlik timsolini ifodalaydi. Tarjima jarayonida ana shu obrazlarning semantik va emotsional mazmunini saqlab qolish tarjimonning ijodiy yondashuviga bog'liq. Mazkur tezisning maqsadi – Mark Tven asaridagi tabiat tasvirlarini o'zbek tiliga tarjima qilishda yuzaga

keladigan lingvistik va madaniy muammolarni tahlil qilish, ularni badiiylikni saqlagan holda ifodalash usullarini ko'rsatishdan iboratdir.

Badiiy tarjima jarayonida tabiat tasvirini adekvat ifodalash tarjimon oldidagi eng murakkab vazifalardan biridir. Chunki tabiat tasviri — bu nafaqat manzara, balki muallifning ichki hissiy dunyosini ochuvchi badiiy vosita hisoblanadi. Yozuvchi tabiat orqali asardagi voqealarning ruhini, qahramonlarning kayfiyatini va jamiyatdagi ijtimoiy muhitni ifodalaydi. Shu bois tarjimon nafaqat so'zlarni tarjima qilishi, balki asar ruhini ham qayta yaratishi kerak.

Tabiat tasviri orqali badiiy matnda uchta asosiy vazifa bajariladi:

1. Estetik – o'quvchida tasviriy go'zallik hissini uyg'otish;
2. Psixologik – qahramonlarning his-tuyg'ularini tabiat orqali ifodalash;
3. Semantik – asardagi ramziy ma'noni ochib berish.

Tarjima jarayonida bu uch jihatni saqlab qolish oson emas. Chunki har bir xalqning tilida tabiatni tasvirlash uslubi, metafora va ramzlari turlicha bo'ladi. Masalan Inglizcha (asl matndan, daryo/atmosfera tasviri):

“The river's soft murmur seemed to speak to the heart, whispering tales of adventure and untold secrets.”¹

“Daryoning yumshoq pichirlashlari sarguzashtlar va aytilmagan sirlarni pichirlab, qalbgga so'zlayotgandek tuyulardi.”²

Tarjimon “pichirlash”ni saqlagan, lekin bu tarjimada suvning yuzasi va badiiy bo'yoqdorlik biroz yetishmaydi bu haqida ham bir-ikki so'z bo'lsa yaxshi bo'lardi.

Masalan tarjimon *“Daryoning mayin pichirlashi — qalbgga so'zlaganday bo'lib*

¹(Asl manba: Twain, M. *The Adventures of Tom Sawyer*. London: Penguin Classics, 2003. — p. 102.)

²Tven, M. *Tom Soyerning sarguzashtlari*. Tarjima: Ilyos Muslim. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985. — 304 b. — 96-bet.

sarguzasht va aytilmagan sirlar haqida hikoya qilardi.” kabi tabiiyroq ifodani tanlashi kerak. Bunday hollarda tarjimon “so'zning ma'nosini emas, uning ta'sirini” tarjima qiladi. Badiiy tarjimada aynan shunday yondashuv asarning ruhini saqlab

qolish imkonini beradi. Mark Tvenning “Tom Soyerning sarguzashtlari” asarida tabiat tasviri o‘ziga xos badiiy funktsiya bajaradi. Yozuvchi Missisipi daryosi, o‘rmon, g‘or va qishloq manzaralari orqali bolalikning erkinligi, sarguzasht ruhi va inson qalbidagi poklikni tasvirlaydi. Masalan, daryo asarda nafaqat voqealar joyi, balki erkinlik va hayot ramzi sifatida beriladi. Tom va Geklberi Fin daryo bo‘yida orzular quradi, o‘zlarini kattalar dunyosidan uzoqda, erkin his qiladilar. Shu sababli daryo obrazini tarjima qilishda uning ramziy mazmunini yo‘qotmaslik nihoyatda muhim.

Asarning o‘zbekcha tarjimasida ayrim joylarda tabiat tasvirining hissiy ohangi saqlanib qolgan, ammo ba’zi hollarda ingliz tilidagi obrazning emotsional kuchi pasaygan. Masalan, asliyatda:

*“...he entered a dense wood, picked his pathless way to the centre of it, and sat down on a mossy spot under a spreading oak. There was not even a zephyr stirring; the dead noonday heat had even stilled the songs of the birds; nature lay in a trance...”*³ uzbekcha tarjimasida esa quydagicha *“...u zich o‘rmonga kirdi, yo‘lini o‘zi topib, usti mox bilan qoplangan joyga o‘tirib oldi. Hatto bir nafas shamol ham bo‘lmasdi; o‘rmon issiqdan jim bo‘lgandi...”*⁴ Botanik konkretlik yo‘qolgan: inglizchadagi “spreading oak” (tarqaluvchi eman / daraxt turi va uning taroqlanishini ko‘rsatadi) — o‘zbekchada faqat “o‘rmon” va “mox bilan qoplangan joy” deb juda umumiy kelgan. Bunda tarjimada ritm zaiflashgan: asl matnda “zephyr” (yengil, iliq shamol) — badiiy kayfiyatni yaratadi; o‘zbek variantida bu so‘z o‘chib ketgan (faqat “bir nafas shamol yo‘q” tarzida oddiylanib qolgan). Misol uchun *“...u zich o‘rmonning*

izsiz yo‘ldan uning ichkarisigacha kirib bordi-da, keng va shoxlarini yoygan eman

³(Asl manba: Twain, M. *The Adventures of Tom Sawyer*. 1876. — p. 118.)

⁴Tven, M. *Tom Soyerning sarguzashtlari*. Tarjima: Ilyos Muslim. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1985. — 304 b. — 121-bet.

ostidagi mox bosgan joyga o‘tirib oldi. Hatto yengil sokin shamol ham esmasdi; kunning qizigan payti qushlarning sayrashini ham to‘xtatgandi; tabiat go‘yo uyquga ketgandek jim va sokin edi.” tarjimon iliq shamol, o‘rmon ichkarisi, kun qizigan mahal kabi so‘zlardan foydalanish tarjima matnining badiiy ma’nosini yanada yaxshiroq ochib

bergan bo'lardi. Shunday qilib, badiiy tarjimada tarjimon so'zga emas, mazmunga sodiq bo'lishi kerak. Ayniqsa tabiat tasvirlari — bu asarning ruhini his qilishni talab qiladigan qismlar.

Tarjima jarayonida uchraydigan muammolar va ularning yechim yo'nalishlari

1. Madaniy nomuvofiqlik: ingliz tilidagi tabiat obrazlari o'zbek madaniyatiga begona bo'lishi mumkin. Masalan, "meadow" yoki "maple tree" kabi so'zlar o'zbek tilida aniq ekvivalenti bilan ifodalanmaydi.

2. Emotsional ohangning yo'qolishi: tarjima jarayonida hissiy kuch pasayib ketishi mumkin.

3. Ramziy ma'nolarning noto'g'ri talqini: tabiat elementlari ko'pincha ramziy ma'noga ega bo'ladi, ularni to'g'ri tushunish tarjimon mahoratini talab qiladi.

Natijada, tarjimon faqat matnni o'girmaydi, balki muallifning badiiy olamini qayta yaratuvchisiga aylanadi. Shu bois badiiy tarjimada tabiat tasvirini ifodalash nafaqat til bilimi, balki badiiy sezgi, madaniy bilim va ijodiy tafakkur talab qiladi. Badiiy tarjima jarayonida tabiat tasvirini to'g'ri va ta'sirchan ifodalash muhim badiiy hamda ilmiy masala hisoblanadi. Mark Tvenning "Tom Soyerning sarguzashtlari" asarida tabiat nafaqat manzara sifatida, balki inson ruhiyatining ifodasi, madaniy fon va ramziy obraz sifatida ishlatilgan. Ilyos Muslim tarjimasida asarning umumiy mazmuni, sarguzasht ruhi saqlangan bo'lsa-da, ayrim joylarda botanik va ekologik detallarning yo'qolishi natijasida badiiy tasvirning chuqurligi pasaygan. Masalan, "spreading oak", "mossy spot" kabi tabiatga oid terminlar o'zbek tilida umumiy shaklda berilgan, bu esa muallifning tabiatga bergan individual bahosini to'liq yetkazmaydi. Tarjimada bunday noaniqliklarni kamaytirish uchun madaniy va semantik ekvivalentlik, konnotativ moslik, hamda ekologik realiyalarni saqlash tamoyillarini qo'llash muhimdir. Shunday qilib, badiiy tarjimada tabiat tasvirini ifodalash masalasi — bu nafaqat lingvistik, balki estetik, ekologik va madaniy muvozanatni talab qiladigan ijodiy jarayondir. Tabiat tasvirini adekvat yetkazish tarjimonning badiiy sezgisi va ilmiy bilim darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Shu

jihtadan, Mark Tven asarining o'zbekcha tarjimasi tarjimashunoslikda o'rganilishi zarur bo'lgan muhim manba bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tven, M. Tom Soyerning sarguzashtlari. Tarjima: Ilyos Muslim. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985. — 304 b.
2. Twain, M. The Adventures of Tom Sawyer. — London: Penguin Classics, 2003. — 240 p.
3. <https://giove.isti.cnr.it/demo/eread/Libri/joy/TSawyer.pdf>
4. https://renessans-edu.uz/files/books/2023-11-01-05-09-23_69cfe29ed19424068088da67a2a1baac.pdf